

## BOLALIK VA KICHIK MAKTAB YOSHI DAVRI XORIJ TILINI SAMARALI O'ZLASHTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Sh.Murodova., G.Ikromova

Buxoro viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi  
“Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta’lim” kafedrasi o‘qituvchilari

**Annotatsiya:** Bolalarni maktabga tayyorlash davridan boshlab, kichik maktab yoshi davrida chet tilini o‘rganishga ko‘nikma hosil qilish va qiziqishini oshirish muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatmoqda. Shu munosabat bilan maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim muassasalarida ham chet tili, xususan, xorij tili to‘garaklarini tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Maktabga tayyorlov guruhidagi bolalarda so‘zlarni eshitib, so‘ng ularni qayta takrorlash orqali yodlab olish qobiliyati kuchli bo‘ladi. Shuning uchun ham hatto boshlang‘ich ta’lim xorij tili darslarini asosan kinestetik tarzda olib borilishi joiz. Bunda bolaga ijobjiy qolipda maqsad qo‘yishni o‘rgatash yaxshi samara beradi.

**Kalit so‘zlar:** fe'l-atvor, tolerantlik, kinestetik, Ijobiy ko‘rinishdagi qolib.

**Abstract:** It shows that it is important to develop skills and interest in learning a foreign language from the period of preparing children for school and keep going in the period of junior school age. In this regard, it is advisable to organize foreign language, especially English language clubs in preschool and primary educational institutions. Children in the preschool group have a strong ability to memorize words by hearing them and then repeating them over and over again. That is why it is permissible to conduct English language classes in elementary education mainly in a kinesthetic way. Teaching the child to set goals in a positive way will help in this.

**Key words:** character, tolerance, kinesthetic, positive pattern.

### KIRISH

Empirik hayot tajribalari bolalarni maktabga tayyorlash jarayonida ham chet tilini o‘rganishga ko‘nikma hosil qilish va qiziqishini oshirish muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatmoqda.

Shu munosabat nafaqat maktabgacha ta’lim muassasalarida balki boshlang‘ich ta’lim davrida ham chet tili, xususan, xorij tili to‘garaklarini tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Ko‘p tilni bilish inson fikrini yanada teran qilib, kommunikativligini va muloqot doirasini kengaytiradi. Uni yoshlikdan o‘rganish xuddi toshga o‘yilgan naqsh

kabi so‘zlarni xotirada muhrlaydi. Shu ma’noda, kichkintoylarning maktabgacha ta’lim dargohlarida xorij tilini o‘rganayotganlari ayni muddaodir.

Yosh bolalar tabiiy ravishda tilni oson o‘zlashtiruvchilardir. Ular tilni xuddi o‘smirlar yoki kattalar kabi idrok qilgan holda o‘zlashtiradilar.

Ayrim ilmiy tadqiqotlarda ayttilishicha, to‘rt yoshdan begona tilni o‘zlashtira boshlagan bolaning talaffuz darajasi, o‘ziga ishonch hissi xorijiy tilni 7 yoshdan o‘rgangan bolanikidan anchayin yuqori bo‘lar ekan. Chunki bola maktabdagi murakkab dasturlarga chalg‘imay turib, o‘yinlar vositasida osongina til o‘rganadi.

## **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

Xorij(xorij) tilini bolaga o‘rgatishda eng avvalo, ularning fe’l-atvorini o‘rganishdan boshlash samarali natijalar beradi. Masalan, tartib-intizomga odatlangan bolaga aniqlikka, hayotiylikka asoslangan misollar, rasmlar, ko‘rgazmali qurollar vositasida til o‘rgatish kerak. Kirishimli va biroz maqtanchoq kichkintoylar she’r hamda qo‘shiqlarga asoslangan mashg‘ulotlarni yoqtirishadi. “Sahna”ga chiqish ishtiyoqi ularni yangi-yangi so‘zlar yod olishga undaydi. Kamsuqum, tortinchoq bolalarni esa o‘yinlarga asoslangan uslub jalb qila olmaydi. Ularga ertak tinglash, multfilm tomosha qilish maroqli. Demak, bolaning qiziqishini topa bilish uning xorijiy tilni qunt bilan mukammal o‘rganishiga yo‘l ochadi.

Maktabga tayyorlov guruhidagi bolalarda so‘zlarni eshitib, so‘ng ularni qayta takrorlash orqali yodlab olish qobiliyati kuchli bo‘ladi. Shuning uchun ham darslar asosan og‘zaki tarzda olib borilishi joiz. Ya’ni o‘quvchilarda dastlab o‘qish va yozishni emas, balki xorijcha so‘zlarni eshitish orqali ko‘nikma hosil qilinadi, so‘ng ular so‘zlarni yod olishadi. Bunda qo‘llanmalarning soddaligi, ayniqsa, xorij tilidagi videodasturlar, multfilmlar, o‘yin va qo‘shiqlar tarzida berilgan mashqlar o‘quvchilarning chet tilini tez va oson o‘zlashtirishiga imkon yaratadi

## **NATIJALAR**

Xorij tilini erta o‘rgana boshlashning o‘ziga xos afzalliklari mavjud:

- Kichik yoshdagagi bolalar hali ham o‘zlaridagi ona tilni o‘rganishga mo‘ljallangan til o‘zlashtirishning tug‘ma uslublaridan foydalanadilar va tez orada ushbu uslublaran xorij tilini o‘rganish maqsadida ham foydalanishlari mumkinligini anglab yetadilar.
- Yosh bolalar o‘yinga o‘xhash faoliyatlar orqali o‘rganish imkoniyatlari keng. Ular tilni katta yoshli inson bilan birgalikda bajarilayotgan faoliyatda qatnashish orqali o‘zlashtir oson kechadi. Ular avval bajarilayotgan harakatning mohiyatini anglab oladilar, keyin esa katta yoshli inson tomonidan qo‘llanilgan tilning ma’nosini o‘zlashtiradilar.
- Yosh bolalarda xorij tilini o‘zlarining kunlik dasturlariga kiritish uchun yetarlicha vaqt mavjud. Bunday dasturlar nisbatan norasmiy bo‘lib, ayni vaqtida bolalarning

ongini ortiqcha yuklatmaydi. Ularga ozgina uy vazifasi beriladi yoki umuman berilmaydi va ular o‘rnatilgan standartlarga loyiq bo‘lishga harakat qilib asabiylashmaydilar.

- Yosh bolalik davrida ikkinchi tilni o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘lgan bolalar keyingi hayotlari davomida boshqa tillarni o‘rganishda ham aynan o‘sha tug‘ma usullaridan foydalanadilar. Ikkinchi, uchinchi yoki undan ham ko‘proq tillarni o‘rganish ikkinchi tilni o‘rganishdan osonroqdir:
- Bolalarda talaffuzning va ushbu til va madaniyatga bo‘lgan munosabatning yaxshiroq bo‘lishi imoniyati yuqori(tolerantlik).
- Faqat bir tilni biluvi bolalar balog‘atga yetganlarida va o‘zini tutishga ko‘proq e’tibor bera boshlaganlarida ularning til o‘rganish qobiliyati susayib boradi va ular xorij tilini grammatikaga asoslangan dasturlar orqali idrok etgan holda o‘rganishlari kerakligini his etadilar. Ushbu o‘zgarish ro‘y beradigan yosh asosan har bir bolaning rivojlanish darajalariga hamda jamiyatdagi ularga bo‘lgan munosabatga bog‘liq.

## MUHOKAMA

Shuningdek, xorij tilini samarali o‘rganishda maktabgacha va kichik mактаб yoshida maqsad-niyatni ijobjiy qo‘ya olish juda muhim va u har qanday faoliyatni natijadorligiga salmoqli hissa qo‘sha oladi. Ijobjiy qolipdagi niyat-maqsad bu ayni vaqtida diqqat e’tiborda turgan real amaliy qadam bosish mumkin bo‘lgan ichki ruhiy botiniy kuch bilan sug‘orilgan psixologik tayyorlikdir. Aytish joizki, dasturlashda maqsadlari to‘g‘ri ijobjiy ko‘rinish holatiga solishning o‘ziga xos talablarini quyidagicha tavsiflash mumkin:

Maqsad-niyat ijobjiy ko‘rinishida “yo‘q”, “emas”, “ma” inkor so‘zlarini qo‘llash joiz emas. Axborotni qayta ishslash jarayonida ongimiz ularni teskarisini bajaradi. Masalan agar shu haqda fikrlama deyilsa u aksincha shu narsalar haqida fikrlab taranglashadi. Yoki men boshqa bunday qilmayman degan fikr odam tasavvurida yorqin ranglarda aynan shu holatni keltiradi. Demak kundalik hayotimizda biz ko‘pchilik hollarda maqsad niyatini to‘g‘ri ifoda etolmay salbiy ko‘rinish qolipiga solamiz va teskari natijani olamiz. Bu ayni chog‘da ta’lim va tarbiya jarayonida ko‘p uchraydigan holatlardandir.

Xorij tilini o‘rganish jarayonida ko‘p uchraydigan salbiy ko‘rinish qolipiga solingan maqsadlarni misol keltirish mumkin: Men xorij tilini harflarini o‘rganish va talaffuz qilishdan boshlayman va ularni xato qilmasdan talaffuz qilaman va doimo xato qilmasdan yozaman. (Ijobjiy ko‘rinishdagi qolip:...ularni to‘g‘ri talaffuz qilaman, to‘g‘ri yozaman) Yoki xorij tili harflarini o‘rgansam yozganda kamroq xato qilaman (Ijobjiy ko‘rinishdagi qolib... harflarni to‘g‘ri o‘rganaman, to‘g‘ri yozaman).

Maqsad-niyatni aniq va hozirgi zamon ko‘rinishda ifoda etish. Aytish joizki, ”balki yetishishim mumkin”, «agarda», “shunday qilganimda edi”, “bir urinib ko‘raychi” kabi

ifodalar maqsad yo‘lidagi to‘sinq hisoblanadi. Men o‘rganyapman, so‘zlar xotiramda saqlanyapti, men ko‘p narsaga erishyapman va hokazo.

Taqosslash, solishtirish ifodalari maqsadni amalgal oshuvida inkor qilishdek to‘sinq hosil qiladi. Shuning uchun xorij tilini o‘rganishda maqsad-niyatda «yaxshiroq», “kamroq” noaniq ifodalarini ishlatish natija olishga to‘sinqlik qiladi. Ular o‘rniga lo‘nda, yig‘iq mazmunli so‘zlarni aniq ishlatish joiz. Masalan: “Yozganda kamroq xato qilaman”(ijobiy ko‘rinishdagi qolib to‘g‘ri yozaman). “Xorij tilida hozirgidan ko‘ra yaxshiroq gapiRAMAN(... xorij tilida erkin so‘zlashaman, burro gapiRAMAN va talaffuz qilaman.)

Maqsadga-niyatga yetishishni aniq hissiyotlar bilan tasavvur qilish.

Xorij tilida to‘g‘ri erkin gapplashish va to‘g‘ri yozishni aniq tiniq yorqin ranglarda, tovushlarda harakatlarda vizual, audal va kinestetik his etish. Ya’ni fikr, niyat, maqsadni audal, vizual, kinestetik axborot qabul qilish kanallarida mukammal ifoda eta olish talab qilinadi. Maqsad , niyatni oldindaa loyihasini tasavvur qilish, bunda tasavvur obrazlarining rangi, katta kichikligi, hajmi, uzoq-yaqinligi, harakati, tovushi kabi ko‘rsatkichlarini yorqin, tiniq, aniq darajalarda iifodalanishi talab etiladi.

Maqsad-niyatga yetganlikni aniqlovchi konkret sana, belgilangan (fiksatsiyalashgan)miqdor o‘rnatish joiz. Ya’ni «bir oz vaqt dan keyin”, “yaqinda”, “bir ikki oy o‘tsa”, “rivojlantiraman”, “takomillashtiraman”, kabi noaniq (kriteriy) ifodalardan voz kechish va 3 kunda, bir hafta bir oy, yoki 30 kunda erishaman deb belgilash joiz.

Shunday qilib, maqsad-niyatlarning amalgal oshuvida birinchi va ikkinchi darajali “afzallik” va “to‘silalar” ta’sirini tekshirish va hisobga olish kerak.

Ya’ni maqsadni “ekologik nazoratdan” o‘tkazish lozim. Bu maqsad-niyat amalgal oshuvida nimalardan kechish kerakligi va nimalarga yetishishni tadqiq etadi va maqsadga erishuvida gumon, ikkilanishlar, shubhalar va bezovtaliklarni bartaraf etadi.

## XULOSA

Xorij tilini samarali o‘rganishda maktabgacha va kichik mактаб yoshida maqsad-niyatni ijobiq qo‘ya olish o‘rgatish juda muhim Ijobiy qolipdagi niyat-maqsad bu ayni vaqtida diqqat e’tiborda turgan ichki ruhiy tayyorlikdir. Xuddi shunday, bolaning qiziqishini topa bilish uning xorijiy tilni qunt bilan mukammal o‘rganishiga yo‘l ochadi. Shuningdek, bolalar talaffuzni imitatsiya qilish va qoidalarni o‘zlar tushunib olish qobiliyatiga egaligi tufayl, xorij tilida so‘zlashishni o‘rganish qiyin degan fikr ularni aqliga kelmaydi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Бендлер Р. Управление собственным мозгом. Электронный источник.
2. Гриндер Д., Бендлер Р. Структура магии. Электронный источник.
3. Гриндер М. Исправление школьного конвейера. Электронный источник.
4. Еремеева Н. Запоминаем английские слова легко // English for you. Электронный источник.